



Bilimni  
baholash  
agentligi

BILIM VA MALAKALARNI BAHOALSH  
AGENTLIGI  
*Bilimingga ishon va muvaffaqiyatga erish!*

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI, AKADEMIK LITSEYLAR  
VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING  
UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA  
OLIMPIADASINING IV (RESPUBLIKA) BOSQICHI  
ISHTIROKCHILARI UCHUN

GEOGRAFIYA  
FANIDAN  
TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

*Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi*

*Imzo*

Ushbu test varianti 40 ta (1–40) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.

Kitobda yopiq va ochiq turdag'i test topshiriqlari mavjud:

- yopiq turdag'i test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang va javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga yozing;
- ochiq turdag'i test topshiriqlarining javobini javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga aniq va tushunarli tarzda yozing;
- moslashtirishni talab qiluvchi yopiq test topshiriqlari uchun umumiyligida (A–F) javob varianti berilgan, uchta topshiriqqa (38-, 39-, 40-test topshiriqlariga) ushbu javoblar orasidan mos ravishda bittadan javob tanlang va javoblar varaqasiga belgilang.

1.

[1,3 ball]


Geografiya fani rivojlanish tarixining **qaysi bosqichida** tabiat zonalligi, geografik qobiq, biosfera ta'limotlari yaratilganligini aniqlang.

- A) *ilmiy geografik ishlar bosqichi*  
 B) *XIX asr va XX asrning 1-yarmida geografiyaning rivojlanishi bosqichi*  
 C) *o'rta asrlar bosqichi*  
 D) *Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi*

2.

[1,3 ball]

Topografik xaritaning pastki ramkasi ostida beriladigan quyidagi chizmada **nima maqsadda foydalanishini** aniqlang.



- A) *havo haroratinining o'zgarishini aniqlash*  
 B) *magnit og'ish burchagini aniqlash*  
 C) *yonbag'irlarning tikligini aniqlash*  
 D) *joyning mutlaq balandligini aniqlash*

3.


[2,4 ball]

Qanday andaza usulida tuzilgan xaritalarda **yo'nalishlarni aniqlash qulayroq** ekanligini aniqlang.

- A) *teng hajmli*  
 B) *teng burchakli*  
 C) *teng maydonli*  
 D) *ixtiyoriy*

4. [3,4 ball]

AB nuqtalar yo‘nalishining azimuti ufqning janub tomoniga mos keladi.



AC yo‘nalishi bilan harakatlanayotgan yo‘lovchi o‘z yo‘nalishini azimut bo‘yicha  $115^\circ$  ga o‘zgartirganda uning yo‘nalishi ufqning qaysi tomoniga mos kelishini aniqlang.

- A) *shimoli-sharq*
  - B) *shimoli-g‘arb*
  - C) *shimol*
  - D) *sharq*
5. [1,3 ball]
- Yonbag‘ir ekspozitsiyasi – bu . . . .

- A) *tarkib topgan tog‘ jinslariga bog‘liq holda tog‘ yonbag‘irlarining ekzogen kuchlar ta’siriga moyilligi*
- B) *tog‘larning etagidan suvayirg‘ich tomon tabiatning issiqlik va namlikka bog‘liq holda o‘zgarib borishi*
- C) *tog‘ yonbag‘irlarida yil bo‘yi erimaydigan qorlarning quyi chegarasi*
- D) *tog‘ yonbag‘irlarining ufq tomonlariga, quyosh nurlari tushadigan tomonga nisbatan joylashuvi*

6. [2,4 ball]

Qutb kunini Shimoliy qutbda davomiyligi (186 sutka), Janubiy qutbdagiga (179 sutka) nisbatan uzunroq ekanligining asosiy sababini **aniqlang**.

- A) *Yer shakli to‘liq shar shaklida emasligi*
- B) *Yer orbitasining ellips shaklida ekanligi*
- C) *Gravitatsiya va Koriolis kuchlarining ta’siri*
- D) *Yer o‘qi orbita tekisligiga nisbatan  $66,5^\circ$  burchak hosil qilishi*

7. [1,3 ball]

Arxipelag – bu . . . .

- A) “okean ↔ atmosfera ↔ quruqlik” tizimida issiqlik va namlik taqsimotini ta’minlaydigan vosita
- B) marjonlar, suvo‘tlar va boshqa organizmlar qoldiqlari yig‘ilishidan vujudga kelgan orollar
- C) okean va dengizlarda suzib yuruvchi yoki sayozqliklarga o‘tirib qoluvchi katta muz
- D) bir-biriga yaqin joylashgan, kelib chiqishi bir xil bo‘lgan okeanlardagi orollar turkumi

8.

[2,4 ball]

To‘g‘ri ma’lumotni **belgilang**.

- A) Shimoliy Muz okean hududida arktika cho‘llari va tundra zonalari shakllangan
- B) Tinch okeani Avstraliya materigini janubdan o‘rab turadi
- C) Hind okeani Fors qo‘ltig‘i orqali Atlantika okeani bilan tutashgan
- D) finikiyaliklar birinchi bo‘lib Hind okean orqali Afrikani janubdan aylanib o‘tganlar

9.

[3,4 ball]

**Hind okeaniga** oid to‘g‘ri ma’lumotlar berilgan javobni aniqlang.

- A) Qizil dengiz suvi Dunyo okeani bo‘yicha eng sho‘r, lekin Hind okeani suvining o‘rtacha sho‘rligi Dunyo okeani o‘rtacha sho‘rligidan past.
- B) Okean tubida botiqlar ancha, ularni bir-biridan kengligi 400-800 km, balandligi 2-3 km bo‘lgan tog‘tizmalar va ko‘tarilmalar ajratib turadi.
- C) Vasko da Gama 1498-y. Afrikani aylanib o‘tib Hindistonga dengiz yo‘lini ochgan. Arablar esa er.av. VI asrda Hind okeani orqali Afrikani janubdan aylanib o‘tib g‘arbdan qaytib kelganlar.
- D) Okeandagi subtropik mintaqada iliq suv massalaridan tarkib topgan tabiat kompleksida okean bo‘yicha eng ko‘p yog‘in yog‘adi (3000 mm gacha).

10.

[1,3 ball]

Baland tog‘lar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni **aniqlang**.

- 1) Alp;
- 2) Karpat;
- 3) Qoraqurum;
- 4) Kavkaz;
- 5) Appalachi;
- 6) Pomir

- A) 1, 3, 4
- B) 2, 3, 6
- C) 2, 5, 6
- D) 1, 4, 5

11.

[2,4 ball]

Shimoldan keladigan sovuq havo massalarini janubga, janubdan keladigan issiq havo massalarini **shimolga o‘tishiga to‘sinqinlik qiladigan tog‘ni** aniqlang.


- A) Katta Suvayirg‘ich tizmasi
- B) Kordilyera
- C) Himolay
- D) And

12.

[3,4 ball]

Bu tabiat zonasiga ko‘proq dengiz iqlimi xos. Arktika sovuq havo massalarining ham ta’siri kuchli. Hududida sur o‘rmon tuproqlar keng tarqagan. Qarag‘ay, qayin, terak, tol, kashtan, eman, buk, Amerika yong‘og‘i, marvaridgul, yertut kabi o‘simaliklar o‘sadi. Virgins bug‘usi, kalamush, puma, bobr, qizil olmaxon, yenot, burunduq asosiy hayvonlaridir.

Matnda tavsifi berilgan tabiat zonasini yozuvlsiz xaritada qaysi raqam bilan belgilanganligini toping.



- A) 4
- B) 3
- C) 1
- D) 2

13.

[1,3 ball]

Bu daryoning irmoqlarining manbayi Tyanshan tog‘larida joylashgan. Binobarin, asosan muzlik va doimiy qorlardan to‘yinib to‘linsuv davri yoz fasliga tog‘ri keladi. Balxash ko‘liga quyiladi.

**Daryoni aniqlang.**

- A) Chu
- B) Ili
- C) To‘rgay
- D) Irtish

14.

[2,4 ball]

O'rta Osiyo hududining rivojlanish tarixining kaynozoy erasida sodir bo'lgan geologik voqealar va paleogeografik sharoitning o'zgarishlarini **belgilang**.

- 1) Tyanshan tog'i yana qaytadan ko'tarilgan;
- 2) dunyodagi neft zaxiralaring asosiy qismi hosil bo'lgan;
- 3) toshko'mir zaxiralari hosil bo'lgan;
- 4) O'rta Osiyo hududi Hind okeanining ta'siridan to'silib qolgan;
- 5) Farg'ona okrugining hududi quruqlilikka aylangan.

- A) 1, 4, 5  
B) 1, 2, 4  
C) 2, 3, 4  
D) 3, 4, 5

15.

[2,4 ball]

Yilning salqin faslida sovuq havo massasini iliq tropik havodan ajratib turadigan qutb fronti **O'rta Osiyoning qaysi qismi ustida shakllanishini aniqlang**.

- A) tekisliklarni tog'lar bilan tutashgan joylari bo'ylab  
B) *shimoliy chekkasi*  
C) markaziy  
D) *janubiy chekkasi*

16.

[1,3 ball]

Turkiston tog' tizmasi qaysi daryo vodiylarini ajratib turishini **toping**.

- A) Sirdaryo va Zominsuv  
B) Sangzor va Zarafshon  
C) Sangzor va Zominsuv  
D) Sangzor va Sirdaryo

17.

[2,4 ball]

Matnni o'qing.

*"Okrug hududini shimol va janubdan o'rab turgan tog'lar paleozoy erasining ohaktosh, kristall va slanes kabi tog' jinslaridan tarkib topgan. Bu tog'lar gersin tog' hosil bo'lish jarayonida burmalangan bo'lib so'ng nurash oqibatida pasayib, daryo irmoqlari va soylar suvlarining hamda fizik nurash ta'sirida yassilanib, qiymalanib, hozirgi qiyofasi shakllangan".*

Berilgan ma'lumotlar qaysi tabiiy geografik okrugning **yer yuzasi tuzilishiga tegishli ekanligini** aniqlang.

- A) Mirzacho'l  
B) Chirchiq-Ohangaron  
C) Surxondaryo  
D) O'rta Zarafshon

18.

[1,3 ball]

Quyidagi elektr stansiyalardan **GES larni aniqlang**.

- 1) Angren;
- 2) Tuyamo'yin;
- 3) Taxiatosh;
- 4) To'palang;
- 5) Sirdaryo;
- 6) Uchqo'rg'on

A) 1, 3, 4

B) 2, 4, 6

C) 1, 5, 6

D) 2, 3, 5

19.

[3,4 ball]


Farg'ona iqtisodiy rayonida joylashgan korxonani aniqlang.

- A) 1940-yilda ishga tushgan bu korxona dastlab havo tarkibidan elektr energiyasi vositasida mineral o'g'it ishlab chiqargan. Xomashyo sifatida tabiiy gazdan foydalana boshlagandan so'ng mahsulot ishlab chiqarish keskin ko'paydi va uning tannarxni arzonlashdi. Kombinatda mineral o'g'itdan tashqari, magniy xlorit hamda plastmassa va sintetik tola olish uchun organik sintez mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.
- B) Bu korxona yaqin vaqtlargacha sement xomashyolarini xorijdan katta-katta xarajatlar hisobiga keltirardi. Xom ashyoning qimmatligi sement ishlab chiqarishni ko'paytirish va sifatini oshirishga to'sqinlik qilardi. Geologlarning izlanishlari natijasida zavodga yaqin hududlarda tuf koni topildi. Tuf eng a'lo sement xomashyosidir. Kon zaxirasi katta bo'lib, yiliga 2–3 mln tonna tuf qazib olinganda ham 45–50 yilga yetishi aniqlandi.
- C) XX-asrning 50-yillarida qurilgan bu korxonada asosiy xomashyo – chigit qoldig'i va sholi qobig'idan texnik etil spirti, furfurol, ozuqa achitqilari kabi mahsulotlar ishlab chiqarilgan. 90-yillar boshidan bu korxonada g'alladan etil spirti ishlab chiqarila boshlandi. Natijada oziq-ovqat, tibbiyot, atir-upa va boshqa sanoat tarmoqlariga zarur spirtni chetdan keltirishga barham berildi.
- D) Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bu korxona Qalmoqqirkon, Qo'rg'oshinkon konlari, boyitish fabrikasi, elektr stansiyasi va bir qancha yordamchi korxonalarini o'z ichiga oladi. Qazib olinadigan mis rudasining tarkibida molibden, oltin va kumush kabi rangli metallar uchraydi.

20.

[1,3 ball]

Osiyo mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanganligi va xo‘jaligining ixtisoslashuviga ko‘ra **qaysi guruhlarga** mansubligini aniqlang.



A) I – d, e; II – c, f; III – a, b.

B) I – a, e; II – d, f; III – c, b.


C) I – b, f; II – c, e; III – a, d.

D) I – b, e; II – d, f; III – a, c.

21.

[2,4 ball]

Davlatlar va ularga oid ma’lumotlar.



- 1) unitar davlat;
- 2) aholi soni bo‘yicha dunyodagi 20 ta yetakchi davlat qatoriga kiradi;
- 3) Janubi-g‘arbiy Osiyo davlatlari orasida o‘z iqtisodiy salohiyati bilan alohida ajralib turadi;
- 4) sanoatining xalqaro ixtisoslashuvini neft va neftni qayta ishslash tarmoqlari belgilaydi;
- 5) dengizbo‘yi va tarixiy-madaniy rekreatsion resurslari yiliga millionlab xorijiy sayyoohlarni o‘ziga jalgiladi;
- 6) Poytaxti mamlakatning eng yirik shahri va iqtisodiy markazi hisoblanadi.

**Berilgan ma’lumotlar asosida Eyler-Venn diagrammasining kesishmasiga mos tushadigan to‘g‘ri javobni toping.**

- A) 1, 2, 3
- B) 3, 4, 5
- C) 4, 5, 6
- D) 2, 3, 6

22.

[3,4 ball]

Kimyo sanoatiga oid to‘g‘ri ma’lumotlarni **belgilang**.

- 1) kimyo korxonalarida energiya va suv ko‘p sarflanadi va bu korxonalar tabiatga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi;
- 2) Janubi-sharqiy Osiyo jahon kimyo sanoatidagi to‘rt asosiy mintaqalardan biri hisoblanadi;
- 3) mamlakatimizning Qo‘qon, Chirchiq, Farg‘ona, Olmaliq shaharlarida mineral o‘g‘itlar ishlab chiqariladi;
- 4) Rossiya kimyo sanoatining eng muhim yo‘nalishi polimer materiallarini qayta ishlashdir;
- 5) mamlakatimizda kimyo sanoati gaz hamda paxta sanoati xomashyosini va rangli metallurgiya chiqindilarini qayta ishlaydi;
- 6) Koreya Respublikasi polimer mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha jahoning birinchi beshtaligiga kiradi.

A) 1, 3, 6

B) 3, 4, 5

C) 2, 5, 6

D) 1, 2, 4

23.

[3,4 ball]

Rossiya davlatining iqtisodiyotiga oid **to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang**.

- A) Rossiya jahon mamlakatlari orasida qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan unumli yerlarni eng katta maydoniga ega. Dehqonchiligining eng muhim tarmog‘i donchilikdir. Don ekinlarining yalpi hosili bo‘yicha Rossiya jahoning yetakchi 5 ta davlatlari qatoriga kiradi va don, xususan, bug‘doy eksporti bo‘yicha jahon miqyosida ajralib turadi
- B) Qora metallurgiya Rossiya sanoatining tayanch tarmoqlaridan biri hisoblanib, mamlakat jahonda temir rudasini qazib olish, po‘lat va cho‘yan eritish va eksport qilish bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Qora metallurgiyaning eng asosiy rayoni G‘arbiy Sibir hisoblanadi.
- C) Rossianing ko‘ptarmoqli mashinasozligi metallni ko‘p talab qiladigan tarmoqlar – aviakosmik texnika, energetika qurilmalari, vagon, yengil va yuk avtomobilari, qishloq xo‘jaligi mashinalari, turli dastgohlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lib, keng geografiyasi bilan ajralib turadi.
- D) Rangli metallurgiya sanoati Rossiyada yuqori darajada rivojlangan, uning asosiy mahsulotlari – alyuminiy, nikel, mis, oltin, kumush, rux va qo‘rg‘oshin. Jumladan, alyuminiy, oltin va nikelni qazib olish bo‘yicha jahonda yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Rangli metallurgiya, asosan, – Kuznetsk va Magnitogorsk havzalariga tayanadi.

24.

[2,4 ball]

O‘zbekiston suv resurslarining ifloslanishida salmog‘i eng yuqori bo‘lgan **iqtisodiyot tarmog‘ini aniqlang**.

A) *transport*B) *qishloq xo‘jaligi*C) *qurilish*D) *sanoat*

25.

[3,4 ball]

*“Bu davrda tabiat komponentlarining barchasiga kuchli ta’sir etildi. Nam ekvator o‘rmonlar (ayniqsa Amazoniya o‘rmonlarining) maydonining qisqarishi tabiatda ekologik muvozanat barqarorligini buzila boshladi. Har yili milliardlab tonna qattiq, gazsimon, aerozol chiqindilar atmosferaga chiqarib yuborilishi natijasida «Issiqxona samarasi» muammosi vujudga keldi. Sahroyi Kabir va boshqa yirik cho’llarning maydonining kengayishi o‘nlab davlatlarga katta xavf-xatar tug‘dira boshladи”.*

Matndagi ma’lumotlar asosida **jamiyat bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning davrini aniqlang.**

- A) qishloq xo‘jaligi inqilobi davri
- B) ekologik munosabatlar davri
- C) fan-texnika inqilobi davri
- D) sanoat inqilobi davri

26.

[1,3 ball]

Hind-yevropa til oilasining slavyan xalqlari guruhi **son jihatidan yetakchilik qiladigan mintaqani** aniqlang.

- A) Shimoliy Yevropa
- B) G‘arbiy Yevropa
- C) Janubiy Yevropa
- D) Sharqiy Yevropa

27.

[3,4 ball]

Demografik o‘tish bosqichlari (II, III, IV) va quyidagi ma’lumotlarni moslashtiring.


II	a	tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari past
III	b	o‘lim ko‘rsatkichi pasayib boradi, aholi tabiiy ko‘payishi yuqori
IV	c	tug‘ilish ko‘rsatkichi yuqori, aholi tabiiy ko‘payishi past
	d	tug‘ilish va aholi tabiiy ko‘payishi ko‘rsatkichlari pasayib boradi

- A) II-b, III-d, IV-a
- B) II-c, III-a, IV-d
- C) II-a, III-b, IV-d
- D) II-d, III-b, IV-c

28.

[3,4 ball]

Xaritadagi A nuqtada sana 21-mart 2022-yil, mahalliy vaqt 7<sup>00</sup>.



B nuqtadagi sana (kun va oy)ni aniqlang.


Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

29.

[3,4 ball]

Chizmadagi A nuqtada normal havo bosimi qayd etilgan, B nuqtadagi havo harorati  $-1,8^{\circ}\text{C}$  ga teng.



Chizmada gorizontallar necha metrdan o'tkazilganligini aniqlang.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

30.

[3,4 ball]

Matnni o'qing.

*"Qizilqum hududida cho'l zonasiga xos bo'lмаган landshaftlar ham uchrab turadi. Bu uzoq yillardan buyon o'zlashtirilib, obodonlashtirib kelinayotgan vohalar – madaniy landshaftlardir. Vohalarda atrofdagi cho'l geotizimlariga nisbatan aholi yashashi uchun ekologik muhit qulay, xo'jalik faoliyati esa bir necha barobar samaralidir".*

Keltirilgan ma'lumotlarda geografik qobiqning qaysi qonuniyati namoyon bo'lganini aniqlang.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

31.

[2,4 ball]

*Mustaqillik yillarida iqtisodiy rayon xo‘jaligining tarkibiy tuzilishida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Rayonda qurilish materiallari sanoati, rangli metallurgiya, kimyo sanoati korxonalari barpo etildi. Neftni qayta ishslash korxonasi barpo qilinib yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.*

**Ma’lumotlar asosida iqtisodiy rayonni aniqlang.**

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

32.

[3,4 ball]

Matnni o‘qing.

*“Aholi soni bo‘yicha jahon mamlakatlarining birinchi o‘ntaligiga kiradi. Tabiiy ko‘payishning eng yuqori sur’atlari bilan jahon miqyosida ajralib turadi. Ko‘pmillatli davlat bo‘lib, aholisining etnik tarkibi 250 tadan ziyod mahalliy millat va elatlardan iborat. Hududining shimoliy va g‘arbiy qismlarida islam dini, sharqiy va janubiy qismlarida esa xristian dini ko‘proq tarqalgan”.*

**Keltirilgan ma’lumotlar qaysi davlatga oid ekanligini aniqlang.**

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

33.

[3,4 ball]

*“Jahonning eng rivojlangan mamlakatlarida aholi yirik shaharlarning markazlaridan asta-sekin shahar atrofiga ko‘chib boradi, lekin shaharda faoliyat yuritishni davom ettiradi. Natijada shaharlar markazlari, asosan, tadbirdorlik, bank-moliya sektori, boshqaruva sohalarining rivojlanish maskanlariga aylanib, aholi yashash massivlari esa tobora markazlardan uzoqlashib boraveradi”.*

Matnda bayon etilgan **jarayonni ifodalashda geografiya fanida** qanday atama ishlatalishini aniqlang.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

34.

[2,4 ball]

Hisor tog‘larida mumkin bo‘lgan yillik bug‘lanish miqdori 1500 mm, namlanish darajasi 0,56 ga teng bo‘lsa, yillik yog‘in miqdorini **aniqlang**.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

35.

[3,4 ball]

Budapest shahri ( $47^{\circ} 30'$  sh.k.,  $19^{\circ} 03'$  sh.q.u.) da mahalliy vaqt  $14^{00}$  bo‘lganda, Brazilia shahri ( $15^{\circ} 45'$  j.k.,  $47^{\circ} 57'$  g.u.) dagi mahalliy vaqtini **aniqlang**.


Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

36.

[2,4 ball]

**Jung‘oriya Olatovi tog‘ tizmasi** chizma-xaritada qaysi raqam bilan belgilangan tabiiy rayonda joylashganligini aniqalang.




Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

37.

[3,4 ball]

Yozuvsiz xaritada yulduzcha bilan belgilangan hududga xos bo'lgan **iqlim tipini** (iqlim mintaqasini inobatga olgan holda, masalan mo'tadil-dengiz) aniqlang.



Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

38-40.

Jadvaldagagi ma'lumotlardan foydalaniib, 38-40-test topshiriqlariga (A-F) javob variantlarini moslashtiring (har bir topshiriqqa bittadan to'g'ri javob mos keladi).

"Ob-havoning biror joyga xos bo'lgan ko'pyillik rejimi (holati) shu joyning iqlimi deyiladi. Yer yuzasining iqlimi xilma-xil, bunga geografik kenglik, havo massalari, relyef, yer yuzasining holati, okean oqimlari kabi omillar ta'sir etadi. Bu omillarga bog'liq holda iqlim tiplari shakllangan".

Topshiriqlar	Ma'lumotlar
<p><b>38.</b> [2,4 ball] Ko'p yog'in yog'adigan yoz va quruq qish, ya'ni yozgi havo namligi qishnikiga nisbatan anchagina yuqori bo'lgan xususiyatlar <b>qaysi iqlim tipiga xos</b> ekanligini aniqlang.</p>	<p>A) mo'tadil kontinental B) O'rta dengiz C) subtropik quruq D) mo'tadil dengiz E) musson F) subtropik nam</p>
<p><b>39.</b> [2,4 ball] Old Osiyo o'lkasining janubi sharqida subtropik kontinental iqlim shakllangan. O'ikaning <b>shimoli g'arbida tarkib topgan iqlim tipini</b> aniqlang.</p>	
<p><b>40.</b> [2,4 ball] Yozda yomg'irlar tez-tez yog'ib turadigan, qishi iliq va tumanli kunlar ko'p kuzatiladigan <b>Buyuk Britaniyada shakllangan iqlim tipini</b> aniqlang.</p>	